

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA YARATILGAN BADIY ASARLARDA O'RIN HOLINI IFODALOVCHI LOKAVTIV SO'Z YOKI SO'Z BIRIKMALARINING QO'LLANISHI****MAXMADIYEV XUDOYSHUKUR MAXMARIZO O'GLI**  
*SAMDCHTI 2-BOSQICH MAGISTRANTI***Annotation**

This article aims to investigate the adverb of place and locative units, expressing deixis of place, locative syntaxemes and conditions basing on comparative analysis and peculiarities locative units, expressing deixis of place, locative syntaxemes of the English and Uzbek languages.

**Key words**

adverb of place, locativeness, prepositions, preposition of place, semantic structure, sentence structure, deixis, locative syntaxeme, text, deixis of place, syntactical units, locative

**Аннотация**

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan badiiy asarlarda o'rin holini ifodalovchi lokavtiv so'z yoki so'z birikmalarining qo'llanishi, lokativ sintaksemalar va ularning yasalishi, qo'llanilishi va ularning har bir til uchun o'ziga xos xususiyatlari o'rganish assiy maqsa qilingan

**Калият сўзлар**

o'rin holi, badiiy asarlar, lokativlik, predloglar, o'rin joyni ifodalovchi predlog, semantik struktura, gap strukturasi, deyksis, lokativ

Barcha davrlarda til vositasida axborot almashinuvni, o'zaro hamkorlik, kommunikatsiya uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Tilshunoslikning asosiy obyekti bu – til. Xorijiy tillarni, jumladan ingliz tilini har tomonlama chuqur o'rganish, ayniqsa, bu tilni o'zbek tili bilan qiyosiy tavsiflash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Tillarni qiyosiy o'rganish ko'pchilik tilshunoslarning doimiy qiziqtirib kelgan. O'zbek tili va ingliz tili nazariy va amaliy grammatikasi, ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasiga oid ma'lumotlarning yetishmasligi yetishmasligi kabilalar inobatga olinib, ularga bo'lgan ehtiyoj bugungi kunda tilshunos olimlar oldiga mavjud muammolarning yechimini topishdek zaruriy topshiriqlarni qo'yamoqda.

Barchamizga ma'lumki tilni o'rganish uzoq muddat davom etadigan jarayon hisoblanadi va bundan tashqari tilni mukammal o'rganish ikki yoki undan ortiq tillarni bevosita tahlil qilib o'rganish orqali amalgalashadi. Tillarni qiyosiy tahlil qilish, ularni chuqur o'rganish yangi tahlil obyektlarini ochadi. Tillarni qiyosiy o'rganish orqali yangi tilshunoslik yo'naliishlari ochilmoqda. Bundan tashqari barcha tillarda gap qurilmasining an'anaviy sintaktik tahlili bugungi kunda tilshunoslikning eskirgan tadqiqot yo'naliishi sifatida qaralmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda sintaktik bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratib talqin etilishi, ushbu birliklarning gapda ishtirok etishida sintaktik aloqalarini aniqlash, sintaktik birliklarning differential belgilari hamda ularning til sathlaridagi semantik maydonini o'rganish va ularni qiyosiy-tipologik tarafdan talqin etish hozirgi zamon tilshunoslari muhum o'rganish obyektlaridan bo'ladi.

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan badiiy asarlarda o'rin holini ifodalovchi lokavtiv so'z yoki so'z birikmalarining qo'llanishiga qaratilgan fikr va mulohazalar o'rinni o'rganish orqali amalgalashadi. Ingliz va o'zbek tillarida lokativlik o'rinda kelgan birliklarning gapdagi boshqa birliklar bilan bo'lgan sintaktik aloqalarini hamda ularning differential sintaktik belgilarni ko'rsatadi. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan badiiy asarlarda o'rin holini ifodalovchi lokavtiv so'z yoki so'z birikmalarining o'ziga xos xususiyatlari ustida to'xtalib o'tdik. Lokativ so'zlar va so'z birikmalarini ikkala tillarda turli vositalar yordamida yasalishiga guvoh bo'ladi. Lokativ birliklarni badiiy adabiyotlardagi misollar orqali tahlil qilishga harakat qildik. Ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan badiiy asarlarda o'rin holini ifodalovchi lokavtiv so'z yoki so'z birikmalarining haqidagi ushbu maqola bu birliklarni o'rganishning bir kichik qismi ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tishni joiz deb topdim. Ushbu mavzu ustida ishlash zamonaviy tilshunoslik uchun yangi qirralarni ochadi desak mubolaga bo'lmaydi.

O'rinni gaplarni komponentlarga ajratib tahlil qilish deganda gap tarkibida ishtirok etgan sintaktik birliklarning o'zaro sintaktik aloqalarini aniqlab, ularning differential sintaktik belgilarini hamda morfologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda esa o'rinni ifodalovchi sintaktik birliklarning differential sintaktik-semantik belgilarini, ularning variantlarini hamda sintaktik aloqalar asosida boshqa sintaksemalar bilan birikish imkoniyatlarini aniqlab, o'rinni ifodalagan sintaktik birliklarning mikromatnda deyktik xususiyatlarini qiyosiy tadqiq etishdan iborat.

Deyksis xususiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tilshunoslar deyktik kategoriyalar deb quyidagilarni e'tirof etadi: 1. shaxs deyksisi, so'zlovchi o'zining real voqelikka bo'lgan munosabatini belgilaydi; 2. lokal deyksis, so'zlovchi o'zi turgan makon bilan boshqasiga bo'lgan munosabati; 3. temporal deyksisi, so'zlovchi o'zining nutqiy muloqot davrini boshqa paytga bo'lgan munosabati [4, 231].

Lokativ so'zlar ishtirok etgan gap qurilmalarini ingliz va o'zbek tillari misolida sintaktik tahlil qilishda gap bo'laklariga ajratib emas, birinchi navbatda gap qurilmasidagi sintaktik birliklarning o'zaro sintaktik aloqalarini aniqlash, ularning differensial sintaktik belgilarini bir-biridan farqlash nazarda tutiladi. Shu ko'rinishda lokativlikni ifodalovchi elementlarni turli tizimli tillarda (ingliz va o'zbek) gaplarni qiyosiy tahlil qilishda avval komponentlarga ajratib, ya'ni sintaktik aloqalar aniqlanib, ular yunksion modellar asosida beriladi. Keyin esa gap qurilmasidagi har bir sintaktik birliklarning differensial sintaktik belgilari aniqlanib, ular komponent modellar yordamida izohlanadi. Biz ushbu maqolamizda quydagi ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan badiiy asarlarda qo'llangan o'rinn holini ifodalovchi lokativ so'z va so'z birikmalarini tahlil qilishga harakat qildik: Ernest Hemingway "A Farewell to Arms", Xoshimov U "Ikki eshik orasi", Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar", Tohir Malik "Murdalar gapirmaydilar", Shuhrat "Oltin zanglamas", Xeminguey E "Alvido quro", Ernest Hemingway "The Old Man and the Sea", Jack London "Martin Eden", Jerome K. Jerome "Three Men in a Boat" va boshqalar.

Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillarida lokativlikni ifodalovchi sintaktik birliklar gapda tobe komponent o'rnida kelib, gapning boshqa bir komponentiga subordinativ aloqa asosida bog'lanadi.

Ingliz tili misolida qaralganda lokativlikni ifodalovchi sintaktik birliklar quydagi komponentlarga tobe bo'lib kelishi mumkin:

1. Yadro predikativ 2 komponentiga tobe lokativlik: They were fighting in the Carpathians (EHFA, 28).
2. Yadro bo'lmanan tobe komponentga tobe lokativlik: I had met two gunners in Milan (EHFA, 27).
3. Yadro predikativ 1 komponentiga tobe lokativlik: The people at the Manor House didn't wait to hear us talk (JKJ, 113).

Ingliz va o'zbek tillari gap qurilmasida yadro bo'lmanan tobe komponent o'rnida kelgan lokativlikni ifodalovchi sintaktik birliklarni tahlil qilishda biz asosan substanstiallik sema bilan ish ko'ramiz. Lokativlik yoki makonning ifodalanishi ingliz tili misolida predlog+ot, o'zbek tilida esa ot+kelishik qo'shimchalari yordamida o'z ifodasini topadi [12, 54].

Ammo qayd etish joizki, ingliz tili misolida barcha predlog+ot yoki o'zbek tilida ot kelishik qo'shimchalari bilan birga har doim ham substanstial lokativ semalarni ifodalavermaydi. Masalan:

The bird went higher in the air (EHOMS 12).

It has more force in the evening (EHOMS 11).

Ushbu gaplarda in the air va in the evening sintaktik birliklar substanstiallikni ifodalasada, birinchi gapda in the air substanstial lokativlikni ifodalasa, ikkinchi gapda in the evening – substanstiallik va temporallikni ifodalarydi.

Bunda semalarni isbotlashda substanstial lokativ va temporallikni ifodalagan elementlarni adverbial elementlar bilan almashtirish mumkin.

The bird went higher in the air. → The bird went here/there

It has more force in the evening → It has more force then.

Yoki where va when so'roq qo'yish yo'li bilan ham buning guvohi bo'lismiz mumkin:

The bird went higher in the air → where did the bird go higher?

It has more force in the evening → when does it have more force?

O'zbek tili misolida ham shunday holatni ko'ramiz.

Hammasi ko'chada shataloq otadi (O'XIEO, 12).

Kuzda dadam uzun tayoq ko'tarib ustiga chiqadi (O'XIEO, 17).

Bu gaplarda ham substanstiallikni ifodalagan sintaktik birliklarni, ya'ni ko'chada adverbial elementlar u erda (shu erda, Kuzda esa o'sha paytda) kabilar bilan almashtirish mumkin yoki qaerda va qachon so'roqlarni qo'yish mumkin:

Hammasi ko'chada shataloq otadi. → Hammasi u erda shataloq otadi → qaerda hammasi shatoloq otadi?

Kuzda dadam uzun tayoq ko'tarib ustiga chiqadi. → o'sha paytda dadam uzun tayoq ko'tarib ustiga chiqadi. → qachon dadam uzun tayoq ko'tarib ustiga chiqadi?

Ingliz tili yaratilgan asarlarda o'rinn holini ifodalovchi lokativ so'z yoki so'z birikmasi turli xil predloglarning ot bilan birikib kelishi yordamida o'z aksini topadi:

at + S: We spent two very pleasant days at Oxford (JKJ, 176)

in + S:I dropped off the train in Milan (EHFA, 169)

on + S:We had decided to sleep on board (JKJ, 86)

O‘zbek tilida yaratilgan asarlarda o‘rin holini ifodalovchi lokativ so‘z yoki so‘z birikmasi otga o‘rin-payt kelishigi qo‘srimchasi qo‘shilishi, hamda adverbial elementlarga ham –da qo‘srimchasi yordamida ifodalanadi.

O‘zbek tili misolida lokativ adessiv semalar quyidagicha ifodalanadi:

S + da:Endi cherkovda toat-ibodat etasan! (TMO, 19)

S + oldida:Bolalar oldida sir boy bermadim (SHOZ, 114)

S + lar + da:Brigadir majlislarda ishtirok etadi (TMM, 112)

Lokativ elementli gaplarni sintaksemalarga ajralib tahlil qilinganda, biz lokativ semalarni asosan kategorial differensial sintaktik-semantik belgilardan substansiallik bazasida tahlil qilindi. Substansial lokativ sintaksemalar faqat ot so‘z turkumi bilan ifodalangan elementlar doirasida lokativ semalarning variantlarini aniqlandi. Ingliz va o‘zbek tillarida yaratilgan badiiy asarlarda o‘rin holini ifodalovchi lokativ so‘z yoki so‘z birikmalarining tahlil qilish jarayonida tillar o‘rtasida ko‘plab biriga nomutanosib bo‘lgan holatlarga duch keldik. Biz ushbu maqolmizda ularning ayrimlarigagina to’xtalib o’tdik.

#### Adabiyotlar

- 1.Ernest Hemingway. The Old Man and the Sea. www.Asiaing.com – 52p
- 2.Jack London. Martin Eden. – Moscow: Progress, 1974. – 504 p.
3. Jerome K. Jerome. Three Men in a Boat. – Penguin Books, 1978. – 185 p.
- 4.Raul G. Tenses as Deictic Categories//Essays on deixis. Tübingen, 1983. P. 226-234
- 5.Shuhrat. Oltin zanglamas. – Toshkent, 1999. – 400 b.
- 6.Sulaymonova N.J. Ilmiy axborotnoma SamDU 2016-yil 4-son (98) 201-b.
- 7.Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent, 1994. – 270 b.
- 8.Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar. – Toshkent, 1998. – 496 b.
- 9.Xeminguey E. Alvido qurol. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1986. – 447 b
- 10.Xoshimov U. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq NMIU, 2012. – 682 b
- 11.Бўронов Ж., Ҳошимов Ў., Исматуллаев Х. English Grammar. Инглиз тили грамматиккаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 351 б.
- 12.Сулайманова Н.Ж. Макон дейксисини ифодаловчи синтактик бирликлар (инглиз ва ўзбек тиллар мисолида) Ученый XXI века 2016 № 2-3 (15)